

O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH

Abduraxmonova Dilshoda Xudoynazar qizi

Norqo'ziyeva Zilola Baxrom qizi

Shukurova Sevinch Sohibjon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti

Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Scientific leader: Abdixodirova G.E

guzalyaabdukadirova01@gmail.com

dilshodaabdurahmonova557@gmail.com

zilolanorkuziyeva02@gmail.com

shukurovasevinch455@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili hozirgi kunda global kommunikatsiya va axborot almashishning asosiy vositalaridan biriga aylangan. Ingliz tilini o'rganish nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki turli madaniyatlarni o'rganish, dunyoqarashni kengaytirish, shuningdek, turli sohalarda, jumladan ta'lim, biznes va ilmiy izlanishlarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yaratadi. O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda pedagogik metodlar samarali bo'lishi uchun to'g'ri yondashuv va o'quvchilarni jalb qilish zarur. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda qo'llaniladigan asosiy pedagogik metodlar, ularning samaradorligi va o'quvchilarni motivatsiya qilishda metodlarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Global kommunikatsiya, til ko'nikmalari, ilmiy izlanishlar, pedagogik metodlar, o'quvchilarni jalb qilish, asosiy pedagogik metodlar, kommunikativ metod.

Аннотация: В этой статье обсуждается, как английский язык стал сегодня одним из основных инструментов глобального общения и обмена информацией. Изучение английского языка не только развивает языковые навыки, но и открывает возможности для знакомства с разными культурами, расширения кругозора и достижения успеха в различных областях, включая образование, бизнес и научные исследования. Для того чтобы педагогические методы обучения английскому языку студентов были эффективными, необходим правильный подход и вовлечение студентов. В статье представлена подробная информация об основных педагогических методах, используемых при обучении английскому языку, их эффективности и значении методов в мотивации студентов.

Ключевые слова: Глобальная коммуникация, языковые навыки, научные исследования, педагогические методы, вовлеченность студентов, основные педагогические методы, коммуникативный метод.

Abstract: This article discusses the fact that English has become one of the main tools for global communication and information exchange today. Learning English not only develops language skills, but also creates opportunities for learning different cultures, broadening one's horizons, and achieving success in various fields, including education, business, and scientific research. In order for pedagogical methods to be effective in teaching English to students, it is necessary to have the right approach and involve students. This article provides detailed information about the main pedagogical methods used in teaching English, their effectiveness, and the importance of methods in motivating students.

Keywords: Global communication, language skills, scientific research, pedagogical methods, student involvement, basic pedagogical methods, communicative method.

KIRISH

Bugungi kunda ingliz tili butunjahon muloqot vositasi sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Globalizatsiya jarayonining jadallashuvi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarning kengayishi natijasida ingliz tilini bilish zarurati yanada oshdi. Ayniqsa, yoshlarga ingliz tilini o'rgatish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu sababli, maktab va oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'rgatishda samarali pedagogik metodlardan foydalanish muhim omil hisoblanadi. Ingliz tilini o'rgatishda faqatgina grammatik qoidalarni yodlatish yoki so'z boyligini oshirish emas, balki o'quvchilarda til orqali muloqot qilish, fikr bildirish, eshitish va tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Bunga erishish uchun esa zamonaviy, kommunikativ va interfaol metodlardan foydalanish talab etiladi. Masalan, kommunikativ yondashuv, CLT (Communicative Language Teaching), task-based learning (vazifaga asoslangan ta'lim), audio-lingual metod, total physical response (TPR), va boshqa metodlar orqali o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishi ortadi, ularning darsda ishtirok etish faolligi kuchayadi. Pedagogik metodlar tanlanayotganda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinishi zarur. Har bir metod o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo'lib, ular to'g'ri uyg'unlashtirilgandagina yuqori natijaga erishish mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, internet platformalaridan foydalanish orqali darslarni yanada samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Mazkur maqolada o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda qo'llaniladigan asosiy pedagogik metodlar, ularning afzalliklari va qo'llash amaliyoti batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, metodlarning ta'lim jarayoniga ta'siri, o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'рни yoritib beriladi. Chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rgatishning samaradorligi bevosita foydalanilayotgan pedagogik yondashuvlarga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Chet tillarini o'rganish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5052-sonli qarori bu borada tub burilish yasadi. Unda ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rgatishda innovatsion va zamonaviy metodlardan keng foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'qitish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Pedagogik metodlar — bu o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan usul va yondashuvlar majmuasidir. Har bir metod ma'lum didaktik tamoyillarga asoslangan bo'lib, dars jarayonini tashkil etish, o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ingliz tilini o'rgatishda interfaol metodlar — “aql hujumi” (brainstorming), “klaster”, “rol o'ynash” (role play), “dialog yaratish”, “muammoli vaziyat” usullari juda samaralidir. Bu usullar orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadi, balki uni amaliyotda qo'llash, muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin ifodalashni ham o'rganadilar. Bundan tashqari, ingliz tili o'qituvchilari uchun tilni o'rgatish metodologiyasini chuqur o'zlashtirish, o'z ustida doimiy ishlash va ilg'or tajribalarni o'rganish muhim sanaladi. Chet el adabiyotlari, xalqaro tajribalar, onlayn kurslar va seminarlardan foydalanish o'qituvchilarga o'z kasbiy mahoratini oshirish imkonini beradi. PISA va TOEFL kabi xalqaro baholash tizimlarining natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion metodlar asosida olib borilgan ta'lim natijadorligi an'anaviy usullarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro diplomatiya, ilm-fan, texnologiya, biznes va ta'lim sohalarida eng ko'p ishlatiladigan til sifatida tan olingan. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 1,5 milliarddan ortiq inson ingliz tilida so'zlashadi yoki uni o'rganmoqda. O'zbekistonda ham ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. 2020-yilgi rasmiy hisobotlarga ko'ra, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili eng ko'p o'qitiladigan chet tili hisoblanadi. Ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchining tanlagan metodikasi o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois zamonaviy ta'lim metodikasi chet tilini o'rgatishda faqat nazariy bilim emas, balki kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishni ham maqsad qiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan interfaollik, innovatsion yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishni talab etadi. Jahon pedagogik tajribasida ingliz tilini samarali o'rgatish uchun ko'plab yondashuvlar ishlab chiqilgan: kommunikativ yondashuv (CLT), audiolingval metod, grammatika–tarjimaga asoslangan yondashuv, tabiatga mos metod (natural approach), ko'p darajali (multi-level) metod, vazifaga asoslangan metod (task-based learning), va boshqalar. Har bir metod ma'lum didaktik vazifani bajarishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va o'rganish muhitiga mos tanlanishi zarur. Chet tilini o'rganish nafaqat akademik bilimlarni rivojlantiradi, balki o'quvchining tafakkuri, madaniy saviyasi va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ingliz

tilini o'rgatishda nafaqat o'quv dasturining mazmuni, balki uni qanday metodlar orqali yetkazilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda ingliz tilini o'rgatish metodikasi doimiy yangilanib, texnologik taraqqiyot bilan uyg'unlashmoqda. Interaktiv doskalar, mobil ilovalar, onlayn platformalar (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom va h.k.) orqali darslarni qiziqarli va samarali o'tkazish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, darslarda QR-kodlar, video va audio materiallar, real muloqot vaziyatlarini yaratish orqali til o'rganish jarayoni tabiiy holatga yaqinlashtirilmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mashxur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT) Bu metod o'quvchilarda chet tilini muloqot vositasi sifatida qo'llashga urg'u beradi. Asosiy maqsad — grammatikani emas, balki fikr almashish, o'z fikrini erkin ifoda etish, savol berish va suhbatda ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirish. Afzalliklari: O'quvchi markazda bo'ladi, darslar interfaol o'tadi, og'zaki nutq rivojlanadi. Vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Language Teaching – TBLT) Bu metod o'quvchilarga turli hayotiy vazifalarni bajarish orqali tilni o'rgatishga asoslanadi. Masalan: menyu yaratish, mehmon kutib olish, telefon suhbatini tashkil etish. Afzalliklari: O'quvchilar faolishtirok etadi, til amaliyot orqali mustahkamlanadi. Audiolingval metod Bu metod takrorlash va yodlash orqali eshitish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dialoglar, strukturalar va mashqlar orqali o'rganiladi. Afzalliklari: To'g'ri talaffuz va grammatik tuzilmalarni mustahkamlashda foydali. Grammatik-tarjimaviy metod (Grammar-Translation Method) Bu an'anaviy metod bo'lib, grammatik qoidalar va tarjima qilish orqali o'rgatiladi. Asosan yozma til va grammatikani o'zlashtirishga yordam beradi. Afzalliklari: Nazariy bilimlarni chuqur o'rgatadi, ilmiy matnlar ustida ishlashda foydali. Total Physical Response (TPR) Bu metod jismoniy harakatlar orqali o'rgatadi. O'qituvchi buyruq beradi, o'quvchi esa uni harakat bilan bajaradi. Masalan: "Stand up", "Open the door". Afzalliklari: Boshlang'ich bosqichda samarali, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun juda foydali. Natural Approach (Tabiiy yondashuv) Bu metod tilni ona tilidek tabiiy o'zlashtirish tamoyiliga asoslanadi. Tushunishga e'tibor qaratiladi, talaffuz va grammatik xatolarga darhol e'tibor berilmaydi. Afzalliklari: O'quvchilar bosim sezmasdan tilni o'zlashtiradi, ishonch hosil bo'ladi. Interfaol metodlar "Klaster", "Insert", "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Munozara" kabi metodlar ingliz tilini o'rganishda keng qo'llaniladi. Afzalliklari: O'quvchilar mustaqil fikrlaydi, guruhlarda ishlaydi, darsga qiziqish ortadi. Multimediyaga asoslangan metodlar Audio, video, animatsiyalar, mobil ilovalar va onlayn platformalar

(Duolingo, Quizlet, Kahoot) yordamida o'rgatish. Afzalliklari: Darslar qiziqarli bo'ladi, eslabqolish osonlashadi, mustaqil o'rganish ko'nikmasi rivojlanadi. Sug'urta metod (Scaffolding Method) Bu metod o'quvchining bilim olish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etadi. O'qituvchi dastlab yordam beradi, keyinchalik o'quvchi mustaqil ishlashga o'tadi. Afzalliklari: O'quvchiga murakkab topshiriqlarni asta-sekinlik bilan tushunishga yordam beradi, o'z-o'zini rivojlantirishga olib keladi. Differensial yondashuv (Differentiated Instruction) O'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish uslublariga qarab dars mazmuni va uslublari moslashtiriladi. Afzalliklari: Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari inobatga olinadi, o'qitishda individual yondashuv bo'ladi. Ko'rgazmali metod (Visual Method) Tasvirlar, diagrammalar, real buyumlar (realia), videolar yordamida o'rgatish. Ayniqsa yangi so'zlarni tushuntirishda samarali. Afzalliklari: Esabqolish oson, ayniqsa vizual o'rganuvchilar uchun foydali. O'yinli metod (Game-Based Learning) Til o'rganish jarayonida turli ingliz tilidagi o'yinlar — lug'ato'yinlari, krossvordlar, role-play, quizlar, domino, bingo kabi mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Afzalliklari: Darsni qiziqarli qiladi, o'quvchilar ishtiyoq bilan qatnashadi, stress kamayadi. Integratsiyalashgan metod (Integrated Skills Approach) Ingliz tilining barcha to'rtta asosiy ko'nikmasi — tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish — bir vaqtning o'zida mashq qilinadi. Afzalliklari: O'quvchilar tilni to'liq va kompleks ravishda o'zlashtiradi. Kolaborativ metod (Collaborative Learning) Bu metod guruhda ishlashga asoslangan. O'quvchilar birgalikda muammoni hal qilish, suhbat qurish, matn tahlil qilish orqali tilni o'rganadilar. Afzalliklari: Jamoada ishlash, fikr almashish va bir-biridan o'rganish ko'nikmasi shakllanadi. Konstruktiv metod (Constructivist Approach) Bu metod o'quvchilar o'z bilimini faol tajriba asosida "quradi". O'qituvchi ko'proq yo'llanma beradi, o'quvchi esa faol tadqiqotchi rolini bajaradi. Afzalliklari: Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda pedagogik metodlardan to'g'ri va samarali foydalanish ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir metodning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ularni o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlash kerak. Kommunikativ metod, topshiriq asosida o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim kabi yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol ishtirok, muloqot qilish va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bugungi kunda ingliz tilini o'rgatishda an'anaviy metodlardan ko'ra interaktiv va zamonaviy usullarga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi. Takliflar: O'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda bir nechta metodlarni birlashtirib, kombinatsiyalangan yondashuvdan foydalansinlar. Har bir darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan metodlardan (CLT, TBLT) keng foydalanish tavsiya etiladi.

Darslarda texnologiyalardan (videodarslar, interaktiv ilovalar) foydalanish til o'rganish samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun rol o'yinlar, munozaralar va guruhli ishlar ko'proq joriy etilishi kerak. O'qituvchilar doimiy ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashib, yangi metodlar bilan tanishib borishlari zarur. Qo'shimcha Xulosa O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda pedagogik metodlarning o'rni beqiyosdir. Har bir metod til o'rgatishda muayyan maqsadga xizmat qiladi va o'quvchilarning individual xususiyatlariga qarab mos tanlanishi kerak. An'anaviy yondashuvlar zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashgan holda yangicha formatda qo'llanilganda yanada samarali bo'ladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi, rag'batlantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi zarur. Til o'rganish jarayoni jonli, interaktiv va o'quvchi markazli bo'lishi kerak. Pedagogik metodlarning to'g'ri qo'llanilishi: O'quvchining o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi; Uzoq muddatli eslab qolishga yordam beradi; Dars jarayonini jonlantiradi; Tilni faol qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi; Mustaqil o'rganishga asos yaratadi. Takliflar metod tanlashda dars mavzusi va maqsadini chuqur tahlil qilish kerak. Har bir metod har qanday mavzuga mos tushavermaydi. Har haftada kamida bir marta innovatsion metodlardan foydalanish an'anaga aylansin. Masalan: rol o'yinlar, "debate", "storytelling", "escape room" formatidagi darslar. O'quvchilarni baholashda faqat test emas, balki ijodiy ishlarga ham e'tibor qaratilsin. Prezentatsiya, video tayyorlash, qiziqarli savol-javoblar orqali baholash shakllari joriy etilsin. Til o'rganishda muhit yaratish zarur. Sinf xona ingliz tilidagi plakatlar, iqtiboslar, lug'at stendlari bilan boyitilsin. Metodlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi darslarda o'zbek madaniyatini tanishtirish orqali o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirish mumkin. Darslarda "peer teaching" usulidan foydalanish foydali. O'quvchilar bir-biriga mavzuni tushuntirish orqali ko'proq bilimni o'zlashtiradilar. Mahalliy sharoitga mos metodik qo'llanmalar ishlab chiqilsin. Qishloq va shahar maktablari sharoitini hisobga olgan holda darslik va metodik materiallar yangilanishi kerak. Ingliz tili o'qituvchilari uchun ochiq darslar, vebinarlar va online master-klasslar tashkil etilsin. Bu metodlar almashinuvi va tajriba orttirish uchun muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ingliz tilini o'rgatish mumkin. Telegram, YouTube, Instagram orqali qisqa darslar yoki "challenge"lar o'tkazish orqali o'quvchilarni jalb qilish mumkin. O'quvchilarga "lifelong learning" – umrboqiy ta'lim g'oyasi singdirilsin. Bu ularni faqat maktabda emas, hayot davomida til o'rganishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI

1. Harmer, Jeremy. The Practice of English Language Teaching. Longman, 2007.
2. Ingliz tilini o'qitishda eng mashhur kitoblardan biri. Asosiy metodlar va ularni amaliyotda qo'llash haqida tushunchalar berilgan.

3. Brown, H. Douglas. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2000. Til o'rganish nazariyalari va pedagogik yondashuvlar haqida.
4. Larsen-Freeman, Diane. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press, 2011. Har xil metodlarning taqqoslanishi va darsda qanday qo'llanilishi.
5. Scrivener, Jim. Learning Teaching: A Guidebook for English Language Teachers. Macmillan Education, 2011. Amaliy tavsiyalar va sinfda foydalaniladigan mashqlar.
6. Richards, Jack C. & Rodgers, Theodore S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014. Til o'qitish yondashuvlari va ularning tarixiy rivojlanishi.
7. Ur, Penny. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press, 1996. Dars rejalashtirish, faoliyatlar, va til ko'nikmalarini rivojlantirishga oid g'oyalar.
8. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-4078-CHET_TIL_0_QITISH_METODIKASI.pdf
9. <https://library-tsul.uz/yo-ubov-i-oshimov-i-ingliz-tili-u-itish/>